



TARJIMA JARAYONIDA KONTEKSTNING AHAMIYATI

Norqulova Dunyonur Sherzod qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Dunyonurnorqulova@gmail.com

Tel: +998500882300

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarjima jarayonida kontekstning nazariy va amaliy ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda lingvistik, pragmatik, situativ hamda madaniy kontekst turlarining tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashdagi roli ilmiy manbalar va zamonaviy tarjima nazariyalari asosida yoritiladi. Xususan, polisemantik birliklar, frazeologizmlar, madaniy realiyalar va implikativ ma'nolar tarjimasida kontekstning determinant omil sifatidagi funksiyasi dalillar bilan asoslanadi. Maqolada tarjima nazariyasining yetakchi namoyandalari qarashlari tahlil qilinib, kontekstni noto'g'ri interpretatsiya qilish semantik deformatsiya va kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkinligi ilmiy jihatdan isbotlanadi. Tadqiqot natijalari kontekstni chuqur anglash professional tarjimon kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** tarjima nazariyasi, kontekst, lingvistik kontekst, pragmatik tahlil, madaniy realiya, ekvivalentlik, semantik interpretatsiya, kommunikativ strategiya, tarjimon kompetensiyasi.*

***Abstract.** This research paper provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical significance of context in the translation process. The study examines the role of linguistic, pragmatic, situational, and cultural contexts in ensuring translation equivalence within the framework of contemporary translation theories. Particular attention is given to the translation of polysemantic units,*



phraseological expressions, cultural realia, and implicit meanings, where context functions as a determining factor in interpretation. The article critically reviews the perspectives of leading translation scholars and demonstrates that inadequate contextual interpretation may result in semantic distortion and communicative failure. The findings confirm that a profound understanding of context constitutes an essential component of professional translator competence and plays a decisive role in achieving communicative adequacy.

Keywords: *translation theory, context, linguistic context, pragmatic analysis, cultural realia, equivalence, semantic interpretation, communicative adequacy, translator competence.*

Аннотация. *В данной научной статье комплексно анализируется теоретическая и практическая значимость контекста в процессе перевода. Исследование освещает роль лингвистического, прагматического, ситуативного и культурного контекста в обеспечении эквивалентности перевода на основе современных теорий переводоведения. Особое внимание уделяется переводу полисемантических единиц, фразеологических выражений, культурных реалий и имплицитных значений, где контекст выступает детерминирующим фактором интерпретации. В работе рассматриваются концепции ведущих представителей теории перевода и доказывається, что некорректная интерпретация контекста может привести к семантической деформации и коммуникативной неадекватности. Результаты исследования подтверждают, что глубокое понимание контекста является неотъемлемым компонентом профессиональной переводческой компетенции.*

Ключевые слова: *теория перевода, контекст, лингвистический контекст, прагматика, культурные реалии, эквивалентность, семантическая интерпретация, переводческая компетенция.*

Kirish. *Tarjima insoniyat madaniyati va intellektual rivojlanishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir til o'ziga xos lug'aviy, grammatik va stilistik xususiyatlarga ega bo'lib, matnni boshqa tilga o'tkazish jarayoni murakkab va ko'p*



qatlamli faoliyatni talab qiladi. Zamonaviy global kommunikatsiya davrida tarjimaning aniqligi va samaradorligi nafaqat til bilimiga, balki nutqning konteksti, madaniy xususiyatlar va pragmatik vaziyatlarni hisobga olishga ham bog‘liq. Shu bois tarjima nazariyasi va amaliyotida kontekstning roli dolzarb masala hisoblanadi. Tarjima jarayoni faqat so‘zlarni lug‘at bo‘yicha o‘zgartirishdan iborat emas; u asl matnning mazmuni, stilistik ohangi va nutq muhitini maqsad tilida o‘quvchiga yetkazish san‘atidir. Kontekstning har bir qatlamini hisobga olish — lingvistik, pragmatik va madaniy — tarjima sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Tarjima nazariyasida asosiy masalalardan biri — ma‘no adekvatligini ta‘minlashdir. Biroq ma‘no har doim ham so‘zning lug‘aviy shakliga bog‘liq emas. U ko‘pincha kontekst orqali aniqlanadi. So‘zning qaysi ma‘noda qo‘llanganini aniqlamasdan turib, to‘g‘ri tarjima qilish mumkin emas. Shu sababli kontekst tarjimaning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Tarjimon til birliklarini alohida emas, balki ularning nutqiy, madaniy va pragmatik muhitda qanday ishlatilishini hisobga olgan holda talqin qilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi — tarjima jarayonida kontekstning ahamiyatini ilmiy tahlil qilish va tarjimaning samaradorligini oshirish yo‘llarini yoritishdir. Maqola davomida tarjimada yuzaga keladigan murakkab vaziyatlar, so‘z polisemiyasi, idiomatik birikmalar va madaniy realiyalar kabi masalalar tahlil qilinadi va ularning kontekstga bog‘liq yechimlari ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotda kontekst tushunchasi lingvistik, pragmatik, situativ va madaniy aspektlarda kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida zamonaviy tarjima nazariyasi vakillari — V.N. Komissarov, Eugene Nida, Peter Newmark, J.Catford, Lawrence Venuti, Shleyermaxer va M. Holliday kabi olimlarning konseptual qarashlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Kontekst va ma‘no aktualizatsiyasi.

Kontekst (lot. contextus — bog‘lanish, tutashuv) til birligining ma‘nosini aniqlovchi nutqiy va ekstralingvistik omillar yig‘indisidir. Har qanday leksik birlik semantik jihatdan polipotensialdir, ya‘ni u bir nechta ehtimoliy ma‘nolarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu potensial ma‘nolardan qaysi biri konkret nutqiy



vaziyatda aktualizatsiya qilinishini kontekst belgilaydi. Zamonaviy semantika nazariyasida ma'no ikki bosqichda qaraladi:

1. lug'aviy (potensial) ma'no.
2. kontekstual (aktual) ma'no.

Tarjima aynan ikkinchi bosqich bilan kuchli ishlaydi. Tarjimon lug'atdagi birinchi ma'noni emas, balki kontekstual ma'noni to'liq aniqlashi lozim. Masalan, ingliz tilidagi "charge" so'zi quyidagi ma'nolarga ega bo'lishi mumkin: ayblamoq, zaryadlamoq, haq undirmoq, hujum qilmoq. Qaysi ma'no tanlanishi butunlay kontekstga bog'liq. Agar tarjimon faqat lug'aviy darajada ishlasa, semantik xatoga yo'l qo'yadi. So'zlar mustaqil va qat'iy ma'noga ega emas, ular nutqiy muhitda o'z semantik funksiyasini amalga oshiradi. Peter Newmark bu haqda shunday yozadi: "Words do not have meaning; they have potential meaning which becomes actual in context." [7. - B 114] Mazkur fikr tarjima jarayonida lug'aviy ma'no emas, balki kontekstual ma'no ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

Lingvistik kontekst va polisemiya.

Lingvistik kontekst til birliklarining grammatik va leksik muhitini anglatadi. U ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Tor kontekst — ibora yoki gap doirasidagi semantik muhit.
2. Keng kontekst — butun paragraf, bob yoki asar miqyosidagi mazmuniy muhit.

Tor kontekst ko'pincha ko'p ma'noli so'zning konkret ma'nosini aniqlash uchun yetarli bo'ladi. Masalan: "He broke the record." Bu yerda "record" so'zi tor kontekst orqali "rekord natija" ma'nosini anglatadi, plastinka emas. Biroq ba'zi hollarda keng kontekst zarur bo'ladi. Adabiy matnlarda ramziy va implikativ ma'nolar faqat butun asar kontekstida ochiladi. Masalan, metaforik strukturalar yoki takroriy motivlar tarjimada keng kontekstual tahlilni talab qiladi. Tarjima nazariyasining yetuk namoyandalaridan biri Eugene Nida "Meaning is not a property of words alone but of words in context" deb ta'kidlaydi (10. - B 30-57). Ushbu fikr lingvistik kontekstning tarjimadagi hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatadi. So'zning



ma'nosi uning lug'aviy izohi bilan chegaralanmaydi; u matn ichidagi sintaktik qurilish, semantik munosabat va stilistik vazifa orqali aniqlanadi. Masalan, polisemantik birliklar tarjimasida kontekst determinant, ya'ni yetakchi rol o'ynaydi. "Bank" so'zi moliyaviy muassasa yoki daryo qirg'og'i ma'nosini anglatishi mumkin, biroq bu ma'no faqat kontekst asosida aniqlanadi. Agar tarjimon kontekstni noto'g'ri interpretatsiya qilsa, semantik deformatsiya yuzaga keladi. Lingvistik

kontekst matn ichidagi til birliklarning o'zaro munosabatini ifodalaydi. Bu jarayonda leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar va sintaktik strukturalar o'zaro bog'lanib, umumiy ma'no hosil qiladi. J. Ketford tarjimini "the replacement of textual material in one language by equivalent textual material in another language" deb tariflaydi (3. – B 27-31). Ushbu ta'rifda "textual material" tushunchasi aynan kontekstual yaxlitlikni nazarda tutadi. Demak, tarjima jarayonida alohida so'z emas, balki matn birligi asosiy obyekt hisoblanadi.

Pradigmatik kontekst va kommunikativ niyat.

Pragmatik kontekst esa nutq ishtirokchilarining maqsadi, kommunikativ vazifasi va auditoriya xususiyatlari bilan bog'liq. P. Nyumark pragmatik omillarning tarjimadagi o'rnini alohida ta'kidlab, "A translation without considering the readership is incomplete" deb yozadi (9. – B 39). Bu fikr tarjimada adresat omilining ahamiyatini ochib beradi. Masalan, rasmiy hujjat, badiiy asar yoki publitsistik matn tarjimasida stilistik strategiya turlicha bo'ladi. Bir xil leksik birlik turli auditoriya uchun turlicha interpretatsiya qilinishi mumkin. Misol uchun: "It's cold here." Bu gap: oddiy fakt, derazani yopish iltimosi, shikoyat, kinoya bo'lishi mumkin. Tarjimon kommunikativ niyatni aniqlamasa, pragmatik nomuvofiqlik yuzaga keladi. Pragmatik kontekst, ayniqsa, rasmiy hujjatlar, diplomatik matnlar va reklama tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri interpretatsiya kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Situativ kontekst.

Situativ kontekst tarjima qilinayotgan nutqning yuzaga kelish vaziyati bilan bog'liq. Bu omil, ayniqsa, og'zaki tarjimada muhimdir. Nutq jarayonida intonatsiya,



imo-ishora, mimika va ekstralingvistik omillar ma'noni to'ldiradi. M. Halliday tilni "language as social semiotic" deb tariflaydi (4. – B 1). Ushbu konsepsiyaga ko'ra, til ijtimoiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir nutq akti muayyan kontekstda shakllanadi. Tarjimon ana shu ijtimoiy-semiotik tizimni anglamas ekan, adekvat tarjima yaratishi qiyinlashadi. Masalan, ingliz tilidagi " You must come" jumlasini: do'stona taklif, qat'iy buyruq, iltimos yoki majburiyat bildirishi mumkin. Bunda intonatsiya va ohang hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarjimon vaziyatni noto'g'ri baholasa, stilistik buzilish yuzaga keladi.

Madaniy kontekst va realiyalar.

Madaniy kontekst tarjimada eng murakkab masalalardan biridir. Har bir til o'z xalqining tarixiy tajribasi, mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiradi. Shleyermaxer tarjimaning ikki yo'lini ko'rsatib, "Either the translator leaves the writer in peace, as much as possible, and moves the reader towards him; or he leaves the reader in peace and moves the writer towards him" deydi (12. – B 49). Bu qarash madaniy kontekstni saqlash yoki moslashtirish strategiyasini tanlash muammosini yoritadi. Masalan, milliy realiyalar, urf-odatlar yoki tarixiy atamalar tarjimasida transliteratsiya, izohlash yoki adaptatsiya usullari qo'llanadi. Har bir til o'z madaniy kodiga ega. Realialar esa ma'lum bir xalqning madaniyati, tarixi, urf-odati, milliy hayoti bilan bog'liq bo'lgan va boshqa tillarda to'liq ekvivalenti bo'lmagan so'zlardir. Masalan: o'zbeklarning milliy bosh kiyimi "do'ppi" bo'lsa, "kimanno" yaponlarning milliy kiyimi, "sombbrero" esa meksikaliklarning keng soyali shlyapasi, "klit" shotland erkaklarining an'anaviy yubkasidir. Shuningdek, "Thanksgiving" – bu Amerika bayrami, boshqa davlatlarda esa aynan shunday bayram mavjud emas. Qisqa qilib aytganda realiya milliy rangbaranglikni ko'rsatuvchi so'zdir. Bunday birlikdagi so'zlarni tarjima qilishda oddiy leksik muqobil yetarli emas, bunda tavsifiy tajima, izohli tarjima yoki transliteratsiya usullari qo'llaniladi. Madaniy kontekstni e'tiborsiz qoldirish matnning milliy koloritini yo'qotadi.

Kontekstning ekvivalentlikni ta'minlashdagi roli.

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik markaziy kategoriya hisoblanadi. Biroq



ekvivalentlik statik hodisa emas, u kontekst asosida shakllanadi. Formal ekvivalentlik (strukturaviy moslik) har doim ham adekvatlikni ta'minlamaydi. Ba'zan dinamik ekvivalentlik – ya'ni maqsad tilidagi o'quvchiga bir xil ta'sir ko'rsatish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, inglizcha hazilni so'zma-so'z tarjima qilish kulgili holatni yo'qotadi. Tarjimon pragmatik va madaniy kontekst asosida adekvat variant tanlashi lozim.

Polisemantik birliklar va frazeologizmlar tarjimasida kontekstning determinant roli.

Tarjima jarayonida eng murakkab masalalardan biri — ko'p ma'noli (polisemantik) birliklar va frazeologik birikmalarni adekvat talqin qilishdir. Polisemiya tilning tabiiy hodisasi bo'lib, bir leksik birlikning bir nechta semantik variantlarga ega bo'lishini anglatadi. Biroq ushbu variantlardan qaysi biri konkret nutqiy vaziyatda aktualizatsiya qilinishi kontekst orqali belgilanadi. Masalan, ingliz tilidagi "issue" so'zi "masala", "son (jurnal soni)", "chiqarish", "avlod" kabi ma'nolarga ega. Tarjimon mazkur birlikni tarjima qilayotganda tor kontekstni (gap doirasini), keng kontekstni (matn mavzusini) va diskurs turini hisobga olishi zarur. Aks holda semantik deformatsiya yuzaga keladi. Frazeologizmlar esa kontekstga yanada kuchli bog'langan birliklardir. Ular ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lib, tarkibiy qismlarning lug'aviy ma'nosi asosida talqin qilinmaydi. Masalan: "to spill the beans" – sirni oshkor qilmoq, "break the ice" – muhitni yumshatmoq. Agar tarjimon ushbu iboralarni so'zma-so'z tarjima qilsa, kommunikativ maqsad buziladi. Frazeologik ekvivalent tanlashda pragmatik va madaniy kontekst hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarda implikativ ma'no muhim o'rin tutadi. Implikatura (yashirin ma'no) bevosita ifodalanmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan semantik qatlamdir. Tarjima jarayonda aynan shu implikativ qatlamni yo'qotmaslik tarjimonning kasbiy mahoratini belgilaydi. V. Komissarov ekvivalentlikni "content invariance under transformation" sifatida tushuntiradi [8. - B 33]. Demak, frazeologizm tarjimasida shakily emas, mazmuniy invariantlik saqlanishi lozim. Bu



esa kontekstni chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Implikative ma'no, kontekstual interpretatsiya va kompetensiya.

Implikativ ma'nolar tarjimada alohida e'tibor talab qiladi. Muallif ko'pincha bevosita aytilmagan, biroq kontekst orqali anglashiladigan ma'noni yashirin tarzda beradi. Agar tarjimon ushbu implikaturani anglamasa, kommunikativ muvaffaqiyatsizlik yuz beradi. L. Venuti tarjimada madaniy ko'rinmaslik masalasini ko'tarib, "Translation is a process that inevitably involves interpretation" deb yozadi[14. – B 18]. Ushbu fikr tarjimonning interpretative faoliyatini tasdiqlaydi. Har bir tarjima – bu talqin, har bir talqin esa kontekstga asoslanadi.

Kontekstni noto'g'ri interpretatsiya qilish semantik deformatsiyaga olib keladi. Semantik deformatsiya esa asl matndagi ma'no va kommunikativ niyatning buzilishidir. Bu jarayon, ayniqsa, badiiy tarjimada yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy matn obrazlilik, metafora va stilistik vositalarga boy bo'lganligi sababli kontekstual qatlamni to'liq anglashni talab etadi. Aks holda esa estetik ta'sir yo'qoladi.

Tarjimon kompetensiyasi ko'p komponentli tizimdan iborat bolib, unda lingvistik, madaniy, kommunikativ va strategik kompetensiyalar mujassamdir. Zamonaviy tarjima tadqiqotlarida kontekstni chuqur anglash professional tarjimonning asosiy malakalaridan biri sifatida baholanadi. Kontekstni tahlil qilish, ma'no qatlamlatini ajratish, implikaturani aniqlash va ekvivalentlikni ta'minlash – bularning barchasi tarjimonning analitik tafakkuriga bog'liq.

Xulosa. Olib borilgan nazariy va tahliliy tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kontekst tarjima jarayonining fundamental kategoriyasidir. Til birliklari o'z ma'nosini mustaqil ravishda emas, balki nutqiy, pragmatik va madaniy muhitda aktualizatsiya qiladi. Shu bois tarjimon uchun kontekstual tahlil professional kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Lingvistik kontekst polisemiya va frazeologizmlar tarjimasida determinant rol o'ynaydi. Pragmatik kontekst kommunikativ niyatni aniqlaydi. Situativ kontekst nutq vaziyatini belgilaydi. Madaniy kontekst esa realiyalar va millik kodni talqin qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kontekstni noto'g'ri interpretatsiya qilish semantik deformatsiya,



pragmatik buzilish va kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Shuning uchun zamonaviy tarjima nazariyasida kontekstni ko'p qatlamli tizim sifatida o'rganish va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kontekstni chuqur anglash professional tarjimon kompetensiyasining markaziy elementi bo'lib, tarjima sifatini belgilovchi asosiy omildir. Tarjima — bu faqat til almashtirish emas, balki ma'no va madaniyatni qayta konstruksiya qilish jarayonidir. Ushbu jarayonda kontekst tarjimonning nazariy tayanchi, metodologik vositasi va amaliy yo'lchi yulduzi sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азизов, О. А. (1982). Таржима назариясига кириш. Ўқитувчи нашриёти.
2. Baker, M. (1992). In other words: A coursebook on translation. Routledge.
3. Catford, J. C. (1965). A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics. Oxford University Press.
4. Halliday, M. A. K. (1978). Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. Edward Arnold.
5. House, J. (1997). Translation quality assessment: A model revisited. Gunter Narr Verlag.
6. Каримов, Н. А. (2010). Таржима назарияси ва амалиёти. Fan va texnologiya нашриёти.
8. Komissarov, V. N. (1990). Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Vysshaya Shkola.
9. Newmark, P. (1981). Approaches to translation. Pergamon Press.
10. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. E. J. Brill.
11. Расулов, Р. Ҳ. (2009). Таржима назарияси асослари. Ўзбекистон Миллий университети нашриёти.
12. Schleiermacher, F. (1992). On the different methods of translating. In R. Schulte & J. Bigue8net (Eds.), Theories of translation: An anthology of essays from Dryden to Derrida (pp. 36-54). University of Chicago Press. (Original work published 1813)



13. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘ofurov, O, Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.
14. Venuti, L. (1995). The translator’s invisibility: A history of translation. Routledge.
15. Ғаниева, М. А. (2016). Таржима жараёнида маданий реалияларнинг берилиши. Филология масалалари, 4(2), 45–52.
16. Шомақсудов, А., & Расулов, Р. (1983). Ўзбек тили стилистикаси. Ўқитувчи нашриёти.